

FIF - Markaziy Osiyo WiB dasturi - Uzbek Leasing

Mamlakat: O'zbekiston

Loyiha raqami: 53574

Faoliyat sohasi: Moliyaviy muassasalar

Bildirishnoma turi: Xususiy

Ekologik toifasi: FI

Tasdiqlanish sanasi: 2022-yil 19-aprel

Qaysi bosqichdaligi: **Tasdiqlangan**

Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana: 2022-yil 29-aprel

"Axborotdan foydalanish to'g'risida"gi direktivaning 1.4.2 (iii) bandiga muvofiq: "Direktorlar kengashi o'zining tasdiqlash vakolatlarini bergan Bank rahbariyati tomonidan ma'qullangan loyihalar bo'yicha, loyihaning qisqacha mazmuni "YTTBni ta'sis etish to'g'risidagi kelishuv"ning 13(iii)-moddasiga muvofiq Bankning a'zo davlatiga tegishli e'tiroz yo'qligi haqidagi xabar berish davrining boshlanishi"da e'lon qilinadi.

Loyiha mazmuni

O'zbekistonning "Uzbek Leasing International A.O." aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasiga (keyingi o'rinlarda "Uzbek Leasing" kompaniyasi yoki "Kompaniya" deb yuritiladi) 6,0 million AQSH dollari (5,4 million yevro) miqdorida birinchi navbatdagi ta'minotli kredit ajratish. Kreditning 3 million AQSH dollari miqdoridagi ikkinchi transhi ajratilmaydi. Kredit so'm yoki AQSH dollarida beriladi. Kredit Markaziy Osiyo WiB dasturi ("WiB krediti") doirasida loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Loyiha maqsadi

Taklif etilayotgan WiB krediti O'zbekistonda xotin-qizlar rahbarlik qilayotgan mayda, kichik va o'rta biznes korxonalarini (MKO'B) moliyalashtirish va nou-xaudan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan. Kompaniya YTTBning amaldagi hamkori bo'lib, u Markaziy Osiyodagi WiB dasturi bo'yicha ilk lizing kompaniyasi hisoblanadi va u WiB krediti mablag'lari yordamida xotin-qizlar rahbarlik qiluvchi MKO'B korxonalarini kreditlaydi.

O'tish davri ta'siri

Kutilayotgan o'tish davri ta'sirining bahosi: 75

75 (FW)

Taklif etilayotgan kredit o'tish davrining *inklyuzivligi* va *raqobatbardoshligini* qo'llab-quvvatlash orqali Markaziy Osiyo WiB dasturining maqsadlariga erishishga yordam beradi. Kredit Markaziy Osiyo WiB dasturining o'tish davri maqsadlari, xususan, ayol tadbirkorlarning kredit mablag'laridan foydalanishlariga ko'maklashish, kengroq ma'noda esa, xotin-qizlarning biznesda faol ishtirok etishini rag'batlantirish va bu orqali mablag'lardan foydalanish imkoniyatini berish hamda ish bilan ta'minlash va tadbirkorlik nuqtai nazaridan gender integratsiyasidagi tafovutlarni kamaytirish kabilarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu hujjatni tuzish paytida bu CA WiB dasturining Markaziy Osiyodagi lizing kompaniyasi bilan ilk qo'shimcha amaliyoti edi.

Mijoz haqida

“UZBEK LEASING INTERNATIONAL AO” AJ QK

“Uzbek Leasing International AO” AJ QK 1996-yilda O'zbekistondagi lizingga ixtisoslashtirilgan ilk kompaniya sifatida tashkil etilgan. Toshkent shahrida bosh ofisi va viloyatlar bo'ylab 10 ta filiallarga ega UL mahalliy KO'B korxonalariga, shu jumladan xotin-qizlar rahbarlik qilayotgan korxonalarga keng ko'lamli lizing xizmatlari (uskunalar va transport vositalarini ijaraga berish) taqdim etishga ixtisoslashgan.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

6 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

6 000 000,00 AQSH dollari

Qo'shimchalilik sharti

Moliyaviy tuzilma: YTTB lizing sektori, xususan, “Uzbek Leasing” kompaniyasi tizimida yetarlicha keng taqdim qilinmaydigan o'rta muddatli moliyalashtirishni (katta ehtimol bilan, mahalliy valyutada) taqdim etadi. Chunki hozirda bu sohaning moliyalashtirish tuzilmasida, asosan, talab qilib olguncha / qisqa muddatli depozitlar hissasi yuqori hisoblanadi.

Bilim, innovatsiya va salohiyatni oshirish: YETTB o'zi berayotgan kredit uchun imtiyozli moliyalashtirish doirasida tijorat asosida moliyalashtirishni o'z ichiga olgan birgalikda tijorat moliyalashtirishni (Texnik ko'mak (TC) jamg'armalari va Texnik bo'lmagan ko'mak jamg'armalari hisobidan) o'z ichiga olgan yaxlit to'plamni taklif etadi, bu esa, mamlakatda moliyalashtirish imkoniyatlaridagi gender tengsizligini kamaytirish va mijozning amaliyotini takomillashtirishga yordam beradi. Kompaniya tomonidan taklif qilingan texnik hamkorlik, masalan, maxsus o'quv kurslari orqali, xotin-qizlar rahbarlii qiladigan MKO'B korxonalarining alohida ehtiyojlarini qondiruvchi moliyaviy mahsulotlar va lizing usullarini ishlab chiqish hamda ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ichki imkoniyatlarni yaratishga ko'maklashadi. Shuningdek, kichik biznes uchun maslahatlar (“ASB”) xizmatlari KO'B korxonalarga rahbarlik qilayotgan

ayollar uchun nou-xau va tarmoqlar imkoniyatidan foydalanishni takomillashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, YTTBning Birinchi zararni sug'urtalash dasturi (FLRC) nisbatan yangi bozor segmentiga dadil kirish xavfini kamaytirish orqali mijozga qulaylik taqdim etadi.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

FI toifasiga kiritilgan (2019 ESP). "Uzbek Leasing" kompaniyasi YTTBning joriy mijozi hisoblanadi va ynda o'tkazilgan Ekologik va ijtimoiy ekspertiza ("ESDD") yillik ekologik va ijtimoiy hisoboti, qarz oluvchining amaldagi Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (ESMS) tahlilini o'z ichiga oladi. Atrof-muhit va ijtimoiy masalalar bo'yicha yillik hisobotlarga asosan, bugungi kunga qadar Kompaniyaning ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari qoniqarlidir. 2021-yilgi ekologik va ijtimoiy hisobotda mijozning odob-axloq kodeksi, kadrlar va gender masalalari bo'yicha tartib-qoidalari mavjud ekanligi ko'rsatilgan. Mijoz ESMS hujjatini YTTBning ESP 2019 siyosatiga muvofiq, shu jumladan ekologik va ijtimoiy istisnalar ro'yxatiga asosan yangiladi. WiB dasturi va Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi (GEFF) krediti doirasida, Kompaniya 2, 4 va 9-loyiha talablariga rioya qilishni davom ettirishi, shuningdek, YTTBning ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish bo'yicha tartiblarini tatbiq qilishi shart bo'ladi. "Uzbek Leasing" kompaniyasidan kelajakda ishchi kuchini boshqarishni yanada takomillashtirish talab qilinadi, shuningdek, har bir kichik loyiha uchun talab qilinuvchi, GEFF krediti doirasida qayta tiklanuvchi energiyaga oid loyihalar bo'yicha ekologik va ijtimoiy muvofiqlik mezonlarini amalga oshirishi kerak bo'ladi. Kompaniya YTTBga amaldagi loyiha talablari va yil davomida yuzaga keladigan boshqa ekologik va ijtimoiy masalalarga rioya etilishi to'g'risida har yili ekologik va ijtimoiy hisobotlarni taqdim etishda davom etadi.

Texnik ko'mak va grant asosida moliyalashtirish

A. Texnik ko'mak (TC): CA WiB texnik ko'mak dasturi ikkita o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga oladi:

(i) hamkor moliyaviy muassasalarning salohiyatini maxsus oshirish: moliyaviy muassasalarning salohiyatini oshirish va dasturni qo'llab-quvvatlash uchun 8 million AQSH dollarigacha bo'lgan texnik ko'mak dasturi yaratildi. Mazkur texnik ko'mak dasturi moliyaviy muassasalarga xotin-qizlar rahbarlik qiladigan MKO'B korxonalarining o'ziga xos ehtiyojlariga mo'ljallangan moliyaviy mahsulotlar va kreditlash usullarini individual ravishda ishlab chiqishda yordam beradi. Bunda u moliyaviy muassa xodimlarini o'qitish, marketingga ko'maklashish, shuningdek, bozorda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish orqali barqaror tarzda ushbu guruhni kreditlashni rag'batlantirish uchun xavf-xatarlarni taqsimlash mexanizmi yordamida bu dasturni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Moliyalashtirish manbai: Tadbirkor ayollarni moliyalashtirish tashabbusi (We-Fi); *miqdori / valyuta:* CA WiB TC dasturi doirasida olingan 8,0 million AQSH dollarining 5,0 million AQSH dollari (birinchi transh) (so'ralgan ikkinchi transh 3,0 million AQSH dollari bilan); *Mijozning hissasi:* YTTBning Mijozlar hissasi siyosati (BDS20-119/Rev.1) va boshqa ko'rsatmalarga muvofiq, qo'shimcha tarzda, mijoz texnik ko'makni qo'llab-

quvvatlash uchun 18000 AQSH dollarigacha hissa kiritishi zarur. Mijozning mazkur hissasi turli seminarlar, marketing chora-tadbirlari hamda WiB bilan bog'liq mahsulotlar bo'yicha o'quv kurslari va targ'iboti uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan materiallarga sarflanishi mumkin.

(ii) kichik biznes uchun maslahatlar ("ASB) guruhi yordamida xotin-qizlar rahbarlik MKO'B korxonalari salohiyatini oshirish.

Moliyalashtirish manbai: We-Fi; miqdori / valyuta: 4,5 million AQSH dollari, CA WiB dasturi darajasida

B. Hamkorlikda investitsiya qilish bo'yicha grantlar / Imtiyozli moliyalashtirish (texnik bo'lmagan ko'mak)

Bu loyiha WiB kreditining 10% gacha bo'lgan birinchi zararni sug'urtalash mexanizmini o'z ichiga oladi (har bir qo'shimcha kredit uchun 70% gacha), bu FLRC taklif qilingan WiB krediti uchun 0,175 million AQSH dollarigacha mablag'larni tashkil qiladi; birinchi zararni sug'urtalash dasturi Kompaniyaning bu dasturda ishtirok etishi natijasida kredit yo'qotishlarini qoplaydi.

Moliyalashtirish manbai: We-Fi; miqdori / valyuta: 0,175 million AQSH dollari (mahalliy valyutada beriladi); Moliyalashtirish holati: Tasdiqlangan

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Zafar Mustafaev

info@uzbekleasing.uz

(+998 78) 120-02-02

(+998 71) 140-37-74

www.uzbekleasing.uz

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi 88-A-uy,

pochta indeksi: 100084

Loyihaning qisqacha mazmuni so'nggi marta yangilangan sana

2022-yil 29-aprel

Aloqador material

- [Tarjimasi: FIF - CA WiB Programme - Uzbek Leasing \(Ruscha\)](#)

Hujjat turi: PDF, e'lon qilingan: 2022-yil 16-may, Hujjat tili: Ruscha

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havolada](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlar va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarni ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.